

ANUSHTEGINIY-XORAZMSHOHLAR DAVRI ALLOMALARI MEROSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Masharipova Gularam Kamilovna

Alfraganus University professori, falsafa fanlari doktori,

Tel.: 90-930-95-82

e-mail: masharipova.gularam2006@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0788-2359

Annotatsiya. Anushteginiy-Xorazmshohlar davri Markaziy Osiyo tarixida ilmiy va madaniy yuksalish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda faoliyat yuritgan allomalar nafaqat tabiiy va aniq fanlar, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga ham ulkan hissa qo'shganlar. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy kabi allomalarning merosi inson, jamiyat, ma'naviyat va axloq masalalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Ularning asarlarida aql va ilmning ustuvorligi, inson kamoloti, adolatli jamiyat g'oyalari ilgari surilgan. Bu esa ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, keyingi davr mutafakkirlari uchun mustahkam ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: Anushteginiy-Xorazmshohlar, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, allomalar merosi, ilmiy meros, ma'naviyat, inson kamoloti, jamiyat, adolat, falsafa, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi.

Аннотация. Период Ануштегинидов-Хорезмшахов является одним из этапов научного и культурного подъема в истории Центральной Азии. Учёные, творившие в этот период, внесли значительный вклад не только в развитие естественных и точных наук, но и в становление социально-философского мышления. В частности, наследие таких мыслителей, как Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Замахшари, направлено на глубокий анализ проблем человека, общества, духовности и морали. В их трудах подчёркивается приоритет разума и знания, идеи совершенствования личности и справедливого общества. Это оказало существенное влияние на развитие социально-философской мысли и послужило прочной научно-методологической основой для последующих поколений мыслителей.

Ключевые слова: Ануштегиниды-Хорезмшахи, социально-философское мышление, наследие учёных, научное наследие, духовность, совершенство человека, общество, справедливость, философия, цивилизация Центральной Азии.

Abstract. The period of the Anushteginid Khwarazmshahs represents one of the significant stages of scientific and cultural flourishing in the history of Central Asia. The scholars who lived and worked during this era made substantial contributions not only to the natural and exact sciences but also to the development of socio-philosophical thought. In particular, the legacy of such thinkers as Abu Rayhan al-Biruni, Avicenna, and Al-Zamakhshari is focused on a profound analysis of issues related to human beings, society, spirituality, and ethics. Their works emphasize the primacy of reason and knowledge, the development of human perfection, and the idea of a just society. This, in turn, had a significant impact on the advancement of socio-philosophical thought and served as a solid scientific and methodological foundation for later generations of thinkers.

Keywords: Anushteginid Khwarazmshahs, socio-philosophical thought, scholarly heritage, scientific legacy, spirituality, human development, society, justice, philosophy, Central Asian civilization.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Anushteginiy-Xorazmshohlar saltanatida yashab, riyoziy jo'g'rofiya (aniqrog'i, geodeziya va kartografiya) sohasida ijod qilgan olimlardan biri Muhammad ibn Najib Bakron bo'lib, hozirda fanda mavjud "Jahonoma" (نامه جهان) risolasi uning qalamiga mansub [1,2]. Aniq fanlar jihatidan qaraganda shunisi muhimki, Najib Bakron o'zining dunyo xaritasini tuzishda riyoziy, jo'g'rofiya uslublaridan ancha keng foydalangan. Aniqrog'i, "Jahonoma"da yozilganiga ko'ra, unda jo'g'rofiy uzunlikni ifodalovchi meridian chiziqlari va kenglikni ifodalovchi parallellar o'tkazilgan. Boshqacha qilib aytganda, xaritada riyoziy jo'g'rofiya elementlaridan biri – gradus to'ri ifodalangan. Gradus to'ri shaharlar o'rnini belgilashda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)

Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy X–XI asrlarda Xorazmda yashab ijod qilgan riyoziyot va fiqh olimi, u haqida juda kam ma'lumotga egamiz. Al-Hububiyning riyoziyotga oid risolalari bilan J.H. Ibodov shug'ullangan [3–6].

Markaziy Osiyoda yashagan yirik mutafakkirlardan biri Faxriddin ar-Roziy (1149–1209)dir. Manbalarda ko'rsatilishicha, u Rayda tug'ilgan, yoshligida Xorazmga kelib, boshlang'ich ma'lumotni shu yerda olgan. Keyinroq u Makka, Madina, Bag'dod shaharlariga borgan, mashhur olimlardan ta'lim olib, Xorazmga qaytib keladi va ilmiy izlanishlarini davom ettiradi.

Abu Rayhon Beruniy nomli O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida Qozizoda Rumiy qalamiga mansub "Sharh al-mulaxxas" (شرح الملخص) ning 20 ta qo'lyozmasi qayd etilgan: № 8217; 3935/II; 10504/I; 2655/II; 8392; 8607/II; 1162/I; 9592; 7672; 7376/I; 117921; 5607; 9783/2; 3049/I; 8947/III; 9346/II; 5619/I; 2984/I/IV; 1341; 6627 [10]. Ular ichida eng qadimgisi 8217 raqamli bo'lib, hijriy 986 (milodiy 1578) yili xattot Muhammad Mo'min ibn Muhammad Qosim xati bilan ko'chirilgan. Biroq uning ayrim nuqsonlari bor: keyingi davrlarda ko'chirilgan varaqlar uchraydi, dastlabki sakkiz varaq ham keyinroq ko'chirilgan. Ularning orasida 3049/I (1229/1813–1814 yili ko'chirilgan, chizmalari aniq chizilgan) va 2655/II (1070/1659 yili ko'chirilgan, nasx-suls aralash xat bilan) nisbatan to'laligi va sifatligi bilan ajralib turadi. Ana shu ikkala qo'lyozma asosida "Sharh al-mulaxxas fi-l-hay'a" (شرح الملخص في الهيئة) P.G. Bulgakov tomonidan rus tiliga o'girildi va chop etildi [4]. Ushbu tadqiqotlar f.f.d., professor G.K.Masharipova ilmiy izlanishlaridan qarash mumkin.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Faxriddin ar-Roziyning ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan. Tehronda 1336/1917 yilda nashr qilingan "Tarixi adabiyoti Eron" nomli asarda Faxriddin ar-Roziy qalamiga mansub asarlarning soni o'ttizdan ortiq, deb ko'rsatilgan.

Olimning "Ilmlar majmuasi" (Jome' al-ulum) asari kirish qismida: "Kitob muallifi Muhammad ibn Umar Faxriddin ar-Roziy. Men bu kitobni yozishda ilm yo'liga kirib, aqlim bilan rozi bo'ldim, bahslashdim, so'ngra shu yo'lda uni yozishni zarur, deb topdim. Natijada, shunday nom bilan kitob yozishni jazm qildim. Unda

mushkul, yopiq narsalarni ochishga harakat qildim. Riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, musiqa, kimyo, fizika, hayvonot, tarix va o'simliklar kabi bir qancha ilmlarning sirlarini talab etuvchilarga yetkazishga harakat qildim. Jaholatda yurgan kishilarni ham bu kitobim bilan yo'lga soldim", deydi.

Kitob 60 bobga bo'linib, ular hisob, geometriya, tarix, musiqa, shatranj (shaxmat), mantiq, tib, til, axloq kabi qator fan sohaslarini o'z ichiga olgan.

J.H. Ibodov aniq fanlarga oid boblarni o'zbek tiliga sharhlar asosidagi tarjima orqali o'rgandi [6].

Eron sharqshunosi Jalol Humoyi ko'rsatishicha, Faxriddin ar-Roziy kitobini qadimgi Xorazm poytaxti Gurganchda 1178 yili Sulton Takash ibn Arslon (1172–1200) nomiga yozgan.

Xorazmshoh Takash musulmon olami sharqida birinchilikni qo'lga kiritish uchun kurashda g'alaba qozonishga ishonar, qiyinchiliklardan qo'rqmas edi. U bobosi Muhammad Xorazmshoh Otsizning (1127–1156) Xorazmni barpo qilish va rivojlantirish siyosatini davom ettirdi.

Faxriddin ar-Roziy yashagan va ijod qilgan davrda mamlakatda siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu haqda u shunday yozadi: "Men ilmga qiziqqanimdan boshlab boshqa hech narsaga ko'ngil bermadim. Faqat shu maqsadga erishish uchun harakat qildim. Bu kitobimni yozgan vaqtimda, hatto, ro'zg'orimning ham hamma ishlarini to'xtatib, butun e'tiborimni shu kitobimga bag'ishladim. "Jome' al-ulum"ni uch yil ichida Xorazmda yozib tugatdim. Bu kitobimni Xorazm podshohligi qaramog'ida yashovchi va boshqa xalqlarga manfaat ko'rsatish uchun yozdim. Bu risola yurakdagi sirlarni ochuvchi, bilimsizlarni bilimli qiluvchi kitobdir. Hozirga qadar odamlarga ma'lum bo'lgan kitoblar ichida noyobdir".

Olim fikrini davom ettirib: "Fanlar deganda nimani tushunish kerak? Bizning maqsadga qanday ilmlar muvofiq keladi? Bunday masalalar haqida bizdan oldingi olimlar ham asarlarida ko'rsatib o'tganlar, ularni men ham yozdim. Maqsadim shuki, ularni qisqa bayon qilishdir. Odamlar ularni o'qib rag'bat topsinlar. Har kim shu ilmlardan bahs etsa, ularni o'qisa, o'rgansa, bahramand bo'ladi va mushkul ishlarni odamlarga oson tushuntira oladi. Agar ilmga qiziqqan kishi qaysi birini hohlasa, shu kitobdan topadi va mendek muallifni eslab, odamlarga aytishga muyassar bo'ladi. Shu sababli bu kitobimga hamma fanlarni o'z ichiga oluvchi "Jome' al-ulum" ("Ilmlar majmuasi") deb nom qo'ydim", deb yozgan.

Madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tibbiyot kabilar ham e'tiborda bo'lgan. Aniq fanlar bo'yicha yutuqlar o'sha davrda qo'lga kiritildi, ma'muriy, xo'jalik, madaniy binolar va inshootlar bevosita amaliy ahamiyat kasb etgan.

Anushteginiy-Xorazmshohlar saltanatidagi aniq fanlar rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy yutuqlarining, xususan, Abu Rayhon Beruniy asarlarining ijobiy ta'siri katta bo'lgan. Jumladan, falakiyot sohasida bu an'anani Mahmud Chag'miniy davom ettirdi. U o'zining "Al-mulaxxas fi-l-hay'a" (المخلص في الهيئة) risolasining "Muqaddima"sida ismi Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniy, Chag'min esa Xorazmdagi qishloq ekanligini ta'kidlagan [7]. Tadqiqotlarda uning ismini yana

Abu-l-Fazl Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag‘miniy shaklida ham yozishadi [8]. Mazkur ma‘lumot Chag‘miniy Xorazmda yashab ijod qilgan, degan xulosaga kelish uchun yetarli dalil bo‘la oladi. Olimning vafot yili, uning “Al-mulaxxas fi-l-hay’a” kitobining Leyden kutubxonasidagi qo‘lyozmasida 618/1221 yil, deb qayd etilgan [8]. Bu sana ushbu qo‘lyozmada tahrir jarayonida yoki xattot tomonidan kiritilgan bo‘lishi mumkin.

Uning yashagan davri Anushteginiy-Xorazmshohlar davlatining siyosiy, iqtisodiy va ilm-fan rivoji bo‘yicha eng yuksalgan oxirgi qismiga (XIII asr birinchi choragi) to‘g‘ri keladi va poytaxt Gurganchda o‘tganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarda buning uchun Gurganch shahrining Makka shahri (qibla) tomonga nisbatan jo‘g‘rofiy uzunligi alohida qayd etilgani dalil sifatida ko‘rsatilgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mahmud Chag‘miniy hayotiga oid manba va tadqiqotlarda aks etgan ba‘zi ma‘lumotlar P.G. Bulgakov tomonidan Qozizoda Rumiyning Chag‘miniy falakiyotiga yozgan sharhi, ya‘ni “Sharh «Al-mulaxxas fi-l-hay’a fi-l-hay’a» (شرح الملخص في الهيئة)” ning ruscha tarjimasiga yozgan so‘z boshida keltirilgan [7]. P.G. Bulgakov Qozizoda Rumiyning “Sharh Al-mulaxxas fi-l-hay’a” (شرح الملخص في الهيئة) asariga bag‘ishlab yozgan maqolasida [8] Chag‘miniy to‘g‘risida ham fikr bildirgan. Shuningdek, Mahmud Chag‘miniyning ilmiy merosidan kelib chiqib, u poytaxt Gurganchdagi madrasalarda aniq fanlar sohasida mudarrislik qilgan, deyiladi [9].

Mashhur yevropalik riyoziyot tarixchisi D. Sarton (1881–1956) o‘zining “Fan tarixiga kirish” nomli asarida Chag‘miniy tomonidan yozilgan:

1. “To‘qqizliklar hisobi”.
2. “Meros taqsim qilishdagi hisob usullariga sharh” nomli risolalari borligi va ular AQShning Prinston universiteti Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanayotganligini yozgan.

Fan tarixida Chag‘miniy “Al-mulaxxas fi-l-hay’a” (الملخص في الهيئة) risolasiga yozilgan sharhlar ko‘p. Ulardan bir nechtasi XIV asrda yashagan aniq fanlar vakillariga tegishli bo‘lib, dastlabkisi Shamsiddin Muhammad ibn Muborakshoh Mirak al-Buxoriy (vafoti 1340 yil) qalamiga mansub. Bundan tashqari XIV asr o‘rtalarida yashagan Kamoliddin at-Turkmaniy, Ali ibn Muhammad Sayid Sharif Jurjoniy (1340–1413) va Abdulvohid ibn Muhammad (XIV asrning ikkinchi yarmi) ham bor.

Abu Rayhon Beruniy nomli O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida Ali ibn Muhammad Sayid Sharif Jurjoniy tomonidan yozilgan sharhning bitta qo‘lyozmasi №2655/III raqamida saqlanadi. U XVII asrda chiroyli nasx xatida ko‘chirilgan, hajmi 52 varaq (221 b – 272 a) [10].

Chag‘miniy falakiyotiga Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) ilmiy maktabining yirik vakili Qozizoda Rumiyy (761/1360 – 840/1437) 1412 yilda sharh yozgan. U “Sharh Al-mulaxxas fi-l-hay’a” (شرح الملخص في الهيئة) deb ataladi. Zero Chag‘miniy risolasiga Qozizoda Rumiyy yozgan sharh aniq fanlar talabi nuqtai nazaridan, ungacha mazkur asarga yozilgan sharhlarga nisbatan mukammalroqdir. Unda “Al-mulaxxas fi-l-hay’a” matni to‘la berilgan va Qozizoda qo‘shimchalari matn ichiga joylashtirilib, ustiga chiziq chiqarilgan. Qozizoda Rumiyy tuzgan sharhning jahon kitob xazinalaridagi

qo‘lyozmalari ko‘p.

Qozizoda Rumiyning “Sharh al-mulaxxas fi-l-hay’a”siga bir qancha sharhlar ham bitilgan. Ushbu institut fondida bunday sharhlardan ikkita mavjud: birinchisi – Nizomiddin Birjandiy tomonidan yozilgan bo‘lib, mazkur fondda uning beshta qo‘lyozmasi mavjud, eng qadimgisi 1007/1599 yili xattot Xushxol xati bilan ko‘chirilgan, biroq asarning faqat bir qismi berilgan, xolos [10]; ikkinchisi – G‘iyosiddin Mansur tomonidan yozilgan №11792/2 raqamli qo‘lyozma bo‘lib, nasta‘liq xatida Muhammad Tayyib Samarqandiy tomonidan 1062/1651–1652 yili ko‘chirilgan [10].

Umuman olganda, Mahmud Chag‘miniy “Al-mulaxxas fi-l-hay’a” (الملخص في الهيئة) asariga yozilgan sharhlar haqida Hoji Xalifaning “Kashf az-zunun” (كشف الظنون) asarida yetarlicha ma‘lumotlar bor. “Al-mulaxxas fi-l-hay’a”ga sharhlar bilan bir qatorda u boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Ular haqida qisqa ma‘lumot beramiz:

1. Mahmud Chag‘miniy “Al-mulaxxas fi-l-hay’a” asarini XV asrda Mirzo Ulug‘bekning Samarqand ilmiy maktabida xorazmlik falakiyotchi olim Husayn ibn al-Husayn al-Xorazmiy al-Kubravi tomonidan fors tiliga o‘girib, unga sharh ham ilova qilgan. Mazkur tarjima, uning qo‘lyozmalari va o‘rganilishi bilan bog‘liq ayrim chalkashliklar borligi haqida O. Bo‘riyevning “Xorazmshohlar – Temuriylar” risolasida keltirilgan. Unda yozilishicha, hozirda ushbu tarjimaning ikkita qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, biri Londonda Britaniya muzeyida (№1524), ikkinchisi Abu Rayhon Beruniy nomli O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda [12]. Keyingi nusxa qisqa, chunki unda asarning faqat ikki bobi bor. Husayn al-Kubravi o‘z tarjimasini “Nuzhat al-mullak fi hay’ati-l-aflak” (نزهة الملاك في هيئة الأفلاك) (“Podshohlarning koinot tuzilishidan huzur olishi”) deb ataganini asarning “Muqaddima”sida qayd etgan [12].

2. Ushbu risolaning fors tiliga yana bir tarjimasini XVI asrga tegishli bo‘lib, uning qo‘lyozmasi hozirgi vaqtda Oksford universiteti kutubxonasida (№1524) saqlanadi [9].

3. Risola XIX asrda dastlab G. Radlof va A. Xoxgeym tomonidan nemis tiliga o‘girildi [13]. Undan rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan lavhalar ham bor [14], lekin asar to‘la o‘rganilmagan. Ushbu risolaning fanda o‘rganilishi Hoji Xalifaning “Kashf az-zunun” asarida qayd etilgan ma‘lumotlardan boshlanadi. Uning ismi Mahmud ibn Muhammad al-Chag‘miniy al-Xorazmiy shaklida keltirilib, “Al-mulaxxas fi-l-hay’at al-basita” (الملخص في الهيئة البسيطة) (“Boshlang‘ich falakiyotga oid qisqacha risola”)ning muallifi deb yozilgan. Hoji Xalifa uning muqaddima va ikki qismdan iboratligini ta’kidlaydi, so‘ngra sharhlari haqida yozadi. Qozizoda Rumiyni Mirzo Ulug‘bek uchun sharhlaganini, Fazlulloh al-Ubaydiy, Kamoliddin Turkmaniy, Muhammad ibn Ahmad (hij. 715 yili sharh yozgan), Sayid Sharif Ali al-Jurjoniy (vaf. 816), al-Mavlo Sinonuddin Yusuf, Muhammad ibn Husayn ibn Rashid al-Mashhadiy al-Xorazmiy, al-Mavlono Abdulvohid, Badriddin as-Sobitiy, Abdulvohid ibn Muhammad, Muhammad ibn Muhammad ibn Abu Tolib (Hammom at-Tabib nomi bilan mashhur bo‘lgan) kabi olimlar ham unga sharh yozganliklarini ta’kidlaydi [15]. Ushbu tadqiqotlar G.K.Masharipova ilmiy izlanishlaridan izlash mumkin [16-25].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Anushteginiy-Xorazmshohlar davrida faoliyat olib borgan Faxriddin ar-Roziyning talaba-o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etishda, ayniqsa, imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda shatranj o'yinlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shatranj aqlni charxlaydi va dunyoqarashni kengaytiradi. Anushteginiy-Xorazmshohlar davrida yaratilgan Mahmud al-Chag'iniyning "Mulaxxas fi-l-hay'a" asarida astronomiyadan qisqacha tushunchalar va farazlarning jahon tabiiy-ilmiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chag'iniyning "Mulaxxas fi-l-hay'a" asari jahon ilmida darslik vazifasini o'tagan hamda ilmiy-falsafiy tafakkur asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Хасанов Х. Сайёҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. - Б.262; 145-148.
2. Бўриев О. Хоразмшоҳлар-Темурийлар. – Тошкент: Фан, 1999. - Б-20; 6-9.
3. Ибодов Дж. Математические трактаты ал-Хубуби и ас-Сиджаванди // Из истории средневековой восточной математики и астрономии. -Ташкент: Фан, 1983. - С.72-81.
4. Ибодов Д.Х. О математические трактате ал-Хубуби ал-Хорезми. - ТашХТ, 1994. - С. 29-31.
5. Ибодов Д.Х. Предшественник научной школы Улугбека ал-Хубуби ал-Хорезми. Медж.конф. -Ташкент: Фан, 2007. - С. 118-120.
6. Ибадов Дж.Х. Математический раздел энциклопедии "Собрание наук Фахр ад-Дина ар-Рази/ - Ташкент: Изв. АН РУз. 1988, № 3. - С. 29-31; Ибодов Д.Х. Классификация физ.-мат.наук в энциклопедии ар-Рази. - Москва, ИИЕиТ, 1992. - С. 118-119.
7. Руми Кази-Заде. Комментарий на «Компендий Астрономии» Чагмини. Предисловие, перевод с арабского языка, П.Г.Булгакова. – Ташкент: Фан, 1993. - 216 с. (+Приложение 16 с.).
8. Булгаков П.Г. Комментарий Руми Кази-заде на «Компендий астрономии» Чагмини // Из истории науки эпохи Улугбека. - Ташкент: Фан, 1979. - С.163-175.
9. Бўриев О., Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди. - Ташкент: Фан, 1999 (Даври. Саркардалик фаолияти. Манбалар). – Тошкент: Фан, 1999. - 36 б.
10. Собрание восточных рукописей Академии Наук РУз. Точные и естественные науки. Составитель А.Б.Вильданова. - Ташкент: Фан, 1998. - 248 с.
11. Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII вв.) Книги 1-3. – Москва, 1983. (т.2. 486 с.).
12. ЎзРФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси, № 1207/III. – Б. 1246-150.

13. Rudloff G., Hochheim A. Die Astronomie des Mahmud ibn Muhammed ibn ‘Omar al-Cagmini // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen Gesellschaft, Bd.47.-1893. - P.213-275.
14. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. 2-е изд. Под ред. И.М.Муминова и М.М.Хайруллаева. – Ташкент: Фан., 1976. - С. 337-380.
15. ХаджжиХалифа. Lexicon Bibliographicum et Eucyclopaedicum Mustafa ben Abdallah... Haji Khalfa celebrato compositum... Editit G. Fluegel.-London, 1835-1858. - P. 731; 1003.
16. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174
17. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamun. Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: intentresearch.org/index.php/irsj/index - pp. 43-50.
18. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tadqiqot manbalarining asosiy yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. 2024-11/3. - B. 69-72. <http://mamun.uz/uz/page/56>.
19. Masharipova G.K. Sharq Aristotelizmi, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino qarashlari. Tamaddun nuri jurnali. 2024 yil dekabr soni. - B. 158-161. <https://doi.org/10.69691/q3ep8x11>.
20. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sinoning ontologik ta'limotida neoplatonik unsurlar va axloqiy qarashlarning insonparvarlik mohiyati. Falsafa va huquq jurnali. 2024/3. – 20-25-b. <https://nuu.uz/falsafa-va-huquq-jurnali/>
21. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sinoning borliq va bilish haqidagi falsafiy qarashlari. International Scientific Journal Of Biruni ISSN (E) 2181-2993 vol. 3, issue 2. oct. (2024). B. 72-80. <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-ali-ibn-sinoning-borliq-va-bilish-haqidagi-falsafiy-qarashlari>
22. Masharipova G.K. Ajdodlarimiz boy ma'naviy merosida Mirzo Ulug' Bekning "To'rt ulus tarixi" asari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(9), Oct., 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz. - B. 220-229. Ikromboyev X. <https://cyberleninka.ru/article/n/ajdodlarimiz-boy-ma-naviy-merosida-mirzo-ulug-bekning-to-rt-ulus-tarixi-asari>
23. Masharipova G.K. Scientific Heritage Of Fakriddin Ar-Razi, One Of The Scientists Of The Anushteghini-Khorazmshah Period. American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381. Vol. 1 Issue 6, September – 2024, Pages: 10-12. <http://www.ijarer.org/>
24. Masharipova G.K. Studying The Heritage Of Allos Based On The Principle Of Continuity. International Journal Of European Research Output ISSN: 2053-3578 I.F. 12.34. - vol.3 no.12 december (2024). Pp. 206-212. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/10413/27969/676542beca8f8_Masharipova.pdf

25. Masharipova G.K. Main Research Areas Of Scientists Of The Khorazm Academy Of Ma'muna American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381 Vol. 1 Issue 8, December – 2024, Pages: 242-247.
<http://ijarer.org/index.php /ij/issue/view/4>.